

O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI

Salomov Temurbek Boburmirzo o‘g‘li
Yuksalish Maktabi Ingliz tili o‘qituvchisi
timurbek.sam1995@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatining o‘rni ochib berilgan va sohada kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda davlat va xalqaro hamkorlikning roliga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlanishi tahlil qilinib, istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, xizmatlar, xizmat ko‘rsatish sohasi, servis.

Аннотация

В статье раскрыта роль предпринимательства в развитии сферы услуг и предложены предложения по развитию малого и частного предпринимательства в этой сфере. Особое внимание уделено роли государственного и международного сотрудничества в развитии сферы услуг. Проанализировано развитие сферы услуг в Узбекистане, даны предложения и рекомендации по перспективным направлениям.

Ключевые слова: предпринимательство, предприниматель, предпринимательская деятельность, услуги, сфера услуг, сервис.

Abstract

The article reveals the role of entrepreneurship in the development of the service sector and offers proposals for the development of small and private entrepreneurship in the sector. Special attention is paid to the role of state and international cooperation in the development of the service sector. The development of the service sector in Uzbekistan was analyzed, and proposals and recommendations were made for promising directions.

Keywords: entrepreneurship, entrepreneur, entrepreneurial activity, services, service sector, service.

KIRISH

Xizmat ko‘rsatish sohasini jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va unda “.....hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish” vazifalari belgilab berilgan[1].

Xizmat ko‘rsatish sohasini iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylantirish ko‘p jihatdan ushbu sohada tadbirkorlik faoliyatini, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik

faoliyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki xizmatlar, asosan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarning samarasi o'laroq, mamlakatimizda mazkur soha yillar davomida iqtisodiy o'sishga yuqori ta'siri kuzatilmoqda. Shu bilan birga o'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasini tadbirkorlik, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik salohiyati hamda zaxiralaridan samarali foydalangan holda keng rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligini ko'rsatdi.

Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasida yuz berayotgan o'zgarishlardan biri — sohada kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining son jihatidan ko'payishi va faoliyat turlari jihatidan kengayishi hisoblanadi. Buning sababi, bir tomondan, xizmat ko'rsatish sohasi obyektiv va subyektiv omillar ta'siridan kelib chiqqan holda, kichik va xususiy biznes faoliyati uchun juda jozibador bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, respublikamizda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi va shu sababli yuqori sur'atlarda rivojlanishi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik va xususiy tadbirkorlikning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sohada raqobatning kuchayishiga, xizmatlar turlarining ko'payishi va sifatining yaxshilanishiga va eng muhimi — xizmatlar narxining pasayishiga va ularga talabning oshishiga hamda keng xalq ommasining xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari oshishiga va nihoyat, xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati samaradorligining oshishiga yordam beradi. Kichik korxonalar bozordagi talab o'zgarishlariga tez moslasha oladi, xizmat turlarini tez o'zgartirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni qisqa muddatda va katta yo'qotishlarsiz o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi va uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholash bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Jan Furastye o'zining "XX asrning buyuk umidi" (1949) asarida xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotga o'tishni ijtimoiy taraqqiyot belgisi sifatida ta'riflagan. Uning ishi xizmat ko'rsatish ustunlik qiladigan iqtisodlar yanada rivojlanganligini taklif qilish orqali uch sektor nazariyasini kengaytirilgan.

Uilyam J. Baumol o'zining "Baumolning tannarxi kasalligi" asari bilan mashhur bo'lib, unda xizmat ko'rsatish sohasida, ayniqsa, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi ko'p mehnat talab qiladigan sohalarda ish haqi unumdorlikning past o'sishiga qaramasdan, nima uchun oshib borayotganini tushuntiradi. Bu ish xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti va davlat siyosati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Daniel Bell "Postindustrial jamiyatning kelishi" (1973) asarida ilg'or iqtisodlar bilim va axborot xizmatlariga alohida e'tibor qaratib, tovar ishlab chiqarishdan xizmatlarga o'tmoqda, degan g'oyani ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, xizmatlar, ayniqsa ta'lim, sog'liqni saqlash va axborot sohalari kelajakdagi iqtisodlarda ustunlik qilishi va mamlakat taraqqiyotining ustivor sohalariga aylanishi prognoz qilingan.

Richard Florida "ijodiy sinf" konsepsiyasi xizmat ko'rsatish sohasini, ayniqsa texnologiya, ta'lim va san'at kabi sohalarni shaharlardagi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari xizmat ko'rsatish sohaslarida bilim va ijodkorlikning rolini ta'kidlaydi.

Jon V. Kendrik xizmat ko'rsatish sohasidagi samaradorlikni o'lchashga e'tibor qaratdi, bu ishlab chiqarish bilan solishtirganda qiyin soha ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqot 1960-1970-yillardagi faoliyati xizmatlarning iqtisodiy natijalarini qanday hisobga olishni o'rganib, mamlakat iqtisodiy o'sishdagi rolini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Viktor R. Fuchs sog'liqni saqlash bo'yicha iqtisodchi bo'lib, AQSh iqtisodiyotida xizmatlarning rolini keng o'rgangan. Uning 1968-yilda chop etilgan "Xizmat iqtisodiyoti" kitobi rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar, xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim va shaxsiy xizmatlar asosiy iqtisodiy faoliyatga aylanib borayotganini birinchilardan bo'lib ta'kidlagan.

Robert Gordonning ishi AQSh iqtisodiyotida samaradorlikni oshirishga qaratilgan. U xizmat ko'rsatish sohasida, ayniqsa sog'liqni saqlash va ta'lim kabi sohalarda iqtisodiy o'sishni xizmatlar sohaslariga bog'lagan xolda o'rgangan va mazkur tadqiqot AQSh iqtisodiyotining kelajagi haqidagi bahslarga hissa qo'shgan.

Jozef Payn va Jeyms Gilmor ushbu biznes nazariyotchilari "The Experience Economy" (1999) kitobining mualliflari bo'lib, unda xizmatlar shunchaki tovarlar yoki asosiy xizmatlar emas, balki tajribani taqdim etish uchun rivojlanayotganini ta'kidlaydi. Ularning ishi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiyot tobora unutilmas tajribalarni yaratishga, xizmat ko'rsatish sohasini tashkil etuvchi chegaralarni kengaytirishga asoslangan.

Ushbu tadqiqotchilar xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotning tuzilishi, o'sishi va muammolariga bag'ishlangan.

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining kichik va xususiy shakllarini rivojlantirish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli o'laroq kamroq mehnat va dastlabki bosqichlarda nisbatan kam kapital qo'shilmalar talab qilishligi bilan ham ahamiyatlidir. Unga boshqaruv tizimining yengilligi, ayrim bozorda u yoki bu xizmatga talabning darajasi to'g'risida yaxshi xabardorlik va boshqalar xosdir. Kichik tadbirkorlikning ushbu afzalliklaridan foydalangan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari moddiy ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan ko'proq raqobatbardosh hisoblanadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik tadbirkorlikning rivojlanganligi xizmat ko'rsatish sohasi yuqori daromadlilikining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida 283 mingdan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar mavjud. Ular barcha kichik korxonalar va mikrofirmalarning 61,2 foizga yaqinini tashkil etadi. Ushbu holat respublikamizda kichik iqtisodiyot sektori amalda yaratilgan hamda

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishi xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda.¹

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida, tadbirkorlik subyektlariga, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yangi tashkil etiladigan korxonalarni texnologik jihozlash uchun katta miqdordagi imtiyozli kreditlar taqdim etilishi natijasida, kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2005-yildagi 38,2 foizdan 2022-yilda 51,8 foizga ko'paygan. Kichik biznes subyektlari tomonidan O'zbekistonda 2022-yilda 173157,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 48,4 % ini tashkil qilgan va o'sish sur'ati 2021-yilga nisbatan 108,5 % ni tashkil qilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori xizmat hajmi savdo xizmatlarida — 74161,5 mlrd. so'mni, transport xizmatlarida — 41726,5 mln. so'mni, yashash va ovqatlanish xizmatlarida — 8 231,7 mln. so'mni, shaxsiy xizmatlarda — 8 566,9 mln. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilda savdo xizmatlarining 42,8 foizi, transport xizmatlarining — 24,1 foizi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining — 4,8 foizi, shaxsiy xizmatlarning — 4,9 foizi kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan. Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushimoliyaviy xizmatlarda 0,9 % (1602,2 mln.so'm) kuzatilgan. Shunday qilib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohalarida kichik tadbirkorlikning rivojlanishi, uning daromadliligi ko'payishining eng muhim shartlaridan biriga aylangan.

Biroq xizmatlar sohasini rivojlanishi iqtisodiyotda doimiy bir maromda rivojlanmay, bir qator salbiy tendensiyalar kuzatiladi, ular quyidagilardan iborat: taqdim etiladigan xizmatlarning sifati pastligi va tor doiradaligi, tarmoq ichida nomuvofiqliklar borligi, xizmatlar sohasining, birinchi navbatda, yuqori daromadli mijozlarga yo'naltirilganligi, ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, bozor instrumentlari va mexanizmlaridan yetarlicha foydalanmaslik, xizmatlar ishlab chiqarilishi va iste'moli darajasida mintaqalararo disproporsiya mavjudligi va boshqalar.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining kichik va o'rta shakllarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Rivojlangan davlatlarda kichik biznesning aksariyat qismi oilaviy korxona shaklida ish yuritish tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekistonda oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash borasidagi samarali islohotlar amalga oshirilmoqda va hukumat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanmoqda[2].

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq mexanizmlar yaratilgan. O'zbekiston hududlarida tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, xizmatlarni kengaytirish, yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish, xizmatlarning sifatini yaxshilash bo'yicha ilg'or tajribalar va namunaviy loyihalarni joriy etilmoqda va mazkur ishlarni amalga oshirish natijasida mazkur tarmoq iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti ma'lumtolari. www.stat.uz

Globallashuv milliy iqtisodiyotlarning global tizimga integratsiyalashuvini osonlashtirib, xizmat ko'rsatish sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu korxonalar o'rtasidagi xalqaro aloqalar va hamkorlikning kuchayishida namoyon bo'ladi, shuningdek, bozorlarni kengaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini yaratib beradi. Transmilliy korporatsiyalar butun dunyo bo'ylab filial tarmoqlarini yaratmoqda, bu esa ilg'or texnologiyalar va boshqaruv amaliyotlarining tarqalishiga yordam beradi. Globallashuv xizmat ko'rsatish sohasida raqobatni kuchaytiradi, chunki korxonalar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham raqobatlashishga majbur. Global kompaniyalarning xizmatlar sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va xarajatlarni optimallashtirishga undaydi. Shu bilan birga, globallashuv xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi, bu esa korxonalarga tajriba va resurslarni almashish, yangi mahsulot va xizmatlarni birgalikda ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu holatlarni inobatga olgan xolda global xizmat turlarini kengayib borishiga monand ravishda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishga yuqori ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'siri globallashuvning asosiy omillaridan biri bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishiga moslashuvchan xizmat turlarini shakllantirish mazkur sohadagi asosiy yo'nalishga aylanishi zarur. AKT xizmat ko'rsatuvchi korxonalarga butun dunyo bo'ylab mijozlar va hamkorlar bilan samarali hamkorlik qilish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Raqamlashtirish onlayn maslahatlar, masofaviy ta'lim va elektron tijorat kabi yangi xizmatlar turlarini yaratishga xizmat qiladi. Bunda quyidagilarga ahamiyat qaratilishi lozim:

Mahalliyashtirish va moslashish: globallashuvga qaramay, mahalliyashtirish xizmat ko'rsatish korxonalari uchun muhim rivojlanish imkoniyatidir. Kompaniyalar o'z mahsulot va xizmatlarini mahalliy sharoit va iste'molchilarning xohishlariga moslashtirishga qaratilgan strategik yo'nalishlarni tanlashlari zarur va buni xalq etib olgan korxonalargina raqobatda ustunlikka erishadilar. Bunda korxonalar uchun madaniy sezgirlik, til to'siqlari va qonuniy talablarni hisobga olishi talab etiladi. Mahalliyashtirish korxonalarga mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish va mijozlarning sodiqligini oshirish imkonini beradi.

Globallashuvning xavf-xatarlari va muammolari:

Globallashuv nafaqat imkoniyatlar, balki xizmat ko'rsatish sohasi uchun xavflarni ham keltirib chiqaradi. Asosiy muammolardan biri bu raqobatning kuchayishi bo'lib, bu daromadning pasayishiga va raqobatbardoshligi past korxonalarning bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, globallashuv resurslar va daromadlarning tengsiz taqsimlanishiga yordam berishi mumkin, bu esa ijtimoiy tengsizlikni oshiradi. Ushbu xavflarni hisobga olish va ularni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish orqali xizmat ko'rsatish korxonalari global raqobatda omon qolishlari mumkin.

Raqamlashtirish xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Narsalar interneti (IoT), sun'iy intellekt (AI) va blokcheyn kabi yangi texnologiyalarning joriy etilishi xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Masalan, IoT dan foydalanish resurslarni boshqarishni takomillashtirish va xizmatlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Davlat va xususiy sektor ushbu texnologiyalarni joriy etish va ularni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun faol hamkorlik qilishi kerak.

Xizmat ko'rsatish tarmog'ini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun infratuzilmaga sarmoya kiritishni oshirish zarur. Bu yangi ob'ektlar qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va infratuzilmani hududlar o'rtasida teng taqsimlashni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Zamonaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini qishloq va chekka hududlarda ham infratuzilmani rivojlantirish orqali xalq etishga ahamiyat qaratilishi lozim.

Malakali xodimlar xizmat ko'rsatish tarmog'ini muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy elementidir. Mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ularga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashga sarmoya kiritish zarur. Shuningdek, mamlakatga iqtidorli mutaxassislarni jalb etish va qoldirish uchun shart-sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutadi. Dunyoning yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan hamkorlik ilg'or texnologiyalar va ilg'or tajribalarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

Startup va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirishning muhim elementi hisoblanadi. Davlat startaplarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishi, ularni moliyalashtirish, infratuzilma va ekspert ko'magidan foydalanish imkonini yaratishi kerak. Bu innovatsiyalarni va yangi xizmatlarni rivojlantirishni rag'batlantirishga yordam beradi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish tarmog'ining rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini yaxshilash yo'lidagi muhim qadamdir. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani, yangi texnologiyalarning joriy etilayotgani va xususiy sektorning faol ishtiroki bu sohani yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Kelgusi yillarda xizmat ko'rsatish tarmog'ining yanada o'sishi va rivojlanishi kutilmoqda, bu esa infratuzilmaga, kadrlar tayyorlashga va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga investitsiyalarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022-yil 1-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4231-son "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF–5780-son “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-aprel kuni hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasi yo‘nalishlarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi materiallari. <https://iiv.uz/news/xizmatkorsatish-sohasini-rivojlantirish-boyicha-qoshimcha-choralar-belgilandi>

5. www.stat.uz — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti ma’lumotlari



2024-yil, sentabr. №7-son

Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Salixova Nodira Maksudovna

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Karimova Shirin Zoxid qizi

2024-yil, sentabr, 7-soni

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin.

Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

tdiu.marketing@mail.ru

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari.
Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621